

XIX ASR IKKINCHI YARIMIDA ZARAFSHON OKRUGI MA'MURIY-
HUDUDIIY TUZILISHIGA DOIR MULOHAZALAR

*Isroilova Nargiza Saipaliyevna,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti*

Annotatsiya

Mazkur maqola XIX asr ikkinchi yarmida Zarafshon okrugining ma'muriy-hududiy tuzilishi haqida ilmiy ma'lumotlar beradi. Unda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Zarafshon okrugining ma'muriy boshqaruvi, hududiy bo'linishlari, hududiy birliklari hamda hududiy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada okrug ma'muriy tuzilishi mustamlaka ma'muriyati islohotlari natijasida o'zgarib turganligi va bu o'zgarishlarning hudud ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: arxiv hujjatlari, manba, okrug, chegara, ma'muriy bo'linish, muvaqqat, Nizom, general-gubernator, tuman.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОМ
УСТРОЙСТВЕ ЗАРАФШАНСКОГО УЕЗДА ВО ВТОРОЙ
ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Аннотация

В статье даны научные сведения об административно-территориальном устройстве Зарафшанского уезда во второй половине XIX века. Анализируются административное управление, территориальное деление, территориальные единицы и особенности территориального управления Зарафшанского уезда, образованного Российской империей в составе Туркестанского генерал-губернаторства. В статье также приводятся сведения о том, как менялась административная структура округа в результате колониальных административных реформ и как эти изменения влияли на общественно-политическую жизнь региона.

Ключевые слова: архивные документы, источник, уезд, граница, административное деление, временный, низам, генерал-губернатор, уезд.

REFLECTIONS ON THE ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL STRUCTURE OF
ZARAFSHAN DISTRICT IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Abstract

This article provides scientific information about the administrative-territorial

structure of the Zarafshan district in the second half of the 19th century. It analyzes the administrative administration, territorial divisions, territorial units and specific features of territorial administration of the Zarafshan district, which was established by the Russian Empire as part of the Turkestan Governorate-General. The article also provides information about the changes in the administrative structure of the district as a result of the reforms of the colonial administration and the impact of these changes on the socio-political life of the region.

Keywords: archival documents, source, district, border, administrative division, temporary, Nizam, governor-general, district.

Kirish. Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda Zarafshon okrugining ma'muriy-hududiy tuzilishi bo'yicha ko'plab asarlar, tadqiqotlar va maqolalar yozilgan bo'lib, ularda Samarqand viloyatining Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinish jarayoni va oqibatlari, okrugning tashkil topishi, uning chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi va bo'linishlari, aholi soni va tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti masalalari tahlil qilingan. Xususan, T.S.Saidqulov, K.K.Pardayev va T.Ahmedovlarning tadqiqot ishlarida bevosita Samarqand viloyati Zarafshon okrugi deb nomlangan 1868-1886 yillar davri tarixi yoritilgan [1,2,3].

Asosiy qism. 1868 yilda Yerjar va Jizzax olinganidan so'ng ruslar Samarqand ostonasiga yetib keladi. Bosqinchilar Buxoro amirligining "ikkinchi poytaxti" bo'lgan Samarqandni egallashga alohida e'tibor qaratishgan. Rossiya imperiyasi va amirlik qo'shinlari o'rtasida 1868 yil 1-2 may kunlari bo'lib o'tgan Cho'ponota va Zirabuloq janglari natijasida Samarqand shahri egallangan [4]. 1868 yil may oyining oxiriga qadar, uning atrofidagi barcha tuman markazlari bosib olindi. Ruslar Urgut va Chelakdan tashqari biror joyda jiddiy qarshilikka duch kelmadilar.

1868 yil 28 iyunda Buxoro amiri va Turkiston general gubernatori o'rtasida shartnoma tuziladi. Unga ko'ra Buxoro amirligi Rossiya nisbatan o'zining vassal ekanligini tan oldi. Shartnomaga muvofiq, amir Samarqand va Kattaqo'rg'onni Rossiyaga berishga majbur bo'ldi va katta miqdorda tovon puli to'ladi. Amir Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ajralib, keyinroq bu hududlarda general-gubernator buyrug'i bilan markazi Samarqand shahri bo'lgan Zarafshon okrugi tuziladi. Okrug boshlig'i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlangan (1868-1877) [5]. Bosqinchilar tomonidan Samarqand harbiy qo'rg'oni ichida joylashgan amirning arki harbiy gospitalga aylantirilib, sobiq Samarqand shahri hokimi binosi okrug boshqaruvchisi general-mayor A.K.Abramovga bo'shatib berildi.

Dastlab Zarafshon okrugi Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat bo'lib, keyinchalik uning tarkibiga Mag'iyon, Farob, Kshtut, Matcha, Falg'or, Yag'nob, Fan kabi bekliklar qo'shilib Panjikent bo'limi tuzilgan. Mazkur mayda

bekliklar okrug gubernatori A.Abramov tomonidan 1870 yilda tashkil etilgan bir guruh olimlardan iborat Iskandarko‘l ekspeditsiyasi natijasida tadqiq etilib, qo‘shib olinishi boshlangan va 1871 yilda tugallangan. Panjikent bo‘limi Tog‘li tumanlar deb ham atalib, Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan.

Zarafshon okrugi janubda Shahrisabz tog‘lari, g‘arbda Buxoro amirligi, shimolda Nurota tog‘lari va sharqda Ilono‘tti darasi va Qoshg‘ar-Davon tizmasi tarmog‘i bilan chegaralangan va Sangzor vodiysi ham Zarafshon okrugi tarkibiga kiritilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, eng muhim strategik hududlar va Zarafshon daryosi suvi nazorati imperiya nazoratiga o‘tgan. Harbiy harakatlar davom etayotganligi sababli, bo‘limlar o‘rtasidagi chegaralar Buxoro amirligi davridagi holatida qoldirilgan. Buxoro amirligi va okrug o‘rtasidagi davlat chegarasi aniqlanishi esa 1877 yilda yakuniga yetgan [6].

Zarafshon okrugi dastlab tuzilgan paytda Samarqand bo‘limi uchta, Kattaqo‘rg‘on bo‘limi esa bitta tumandan iborat bo‘lib, 1876 yilda Samarqand bo‘limi 8 ta tuman, 2 ta uchastka, 134 ta daha va 653 ta qishloq; Kattaqo‘rg‘on bo‘limi 3 ta tuman, 22 ta uchastka va 286 ta qishloq; Tog‘li tumanlar 2 ta tuman, 12 ta uchastka va 223 ta qishloqni o‘z ichiga olgan [7]. 1868-1886 yillar davomida imperiya ma‘muriyati tomonidan o‘tkazilgan siyosiy islohotlar natijasida okrug ma‘muriy bo‘linmalari tarkibi doimo o‘zgarib turgan va bunda mahalliy sharoitlar inobatga olinmagan. N.Abduraximovanning ma‘lumot berishicha, imperiya tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma‘muriy-hududiy bo‘linishda o‘lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari hisobga olinmadi. U haqli ravishda byurokratik-g‘azna ahamiyatiga molik deb atalgan hududlarni tashkillashtirish bo‘yicha umumimperiya tadbirining qonuniy davomi bo‘ldi. Okrugning umumiy maydoni bo‘yicha ham bir-biriga yaqin ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Jumladan, 1882–1884 yillarda o‘lkani tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K.Girs hisobotlarida esa okrug hududi 23177 kv. verst berilgan.

Okrugda boshqaruv ishlari 1868 yil iyunda qabul qilingan “Muvaqqat qoidalar”ga ko‘ra amalga oshirilgan. Unga muvofiq hududda harbiy boshqaruv o‘rnatilib, okrug gubernatori Turkiston general-gubernatori tomonidan lavozimiga qo‘yilgan va ozod qilingan. Xorijiy tadqiqotchi A.Morrisonning ma‘lumot berishicha, dastlabki davrlarda mahalliy boshqaruvda amirlik davridagi amin va amlokдорlik tizimi saqlanib turilgan [8].

Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqandda shahar boshqaruvi quyidagi tarkibdan iborat bo‘lgan: okrugda umumxalq ishlari bo‘yicha mudir va shahar me‘mori; okrugda sug‘orish ishlari bo‘yicha mudir; okrugda aksiz soliqlari bo‘yicha mudir; shahar hokimi.

Okrugdagi bo‘limlar volost, uchastka va oqsoqolliklardan iborat bo‘lib, imperiya tomonidan tayinlangan amaldorlar, oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Ularni

mahalliy aholi tomonidan saylanish tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, xalq ovozi bergan va xohlagan nomzodlar emas imperiya uchun sadoqat bilan xizmat qilishga tayyor shaxslar saylangan. Tumanlarda quyidagi lavozimlar bo'lgan: volost boshlig'i; xabarchi yigitlar; oqsoqollar; qo'rboshi, politsmeysterlar; qishloq mirshabi. Mazkur lavozimlardagi shaxslar soni har bir tumanda turlicha bo'lib, bunda hudud va aholisi soni e'tiborga olingan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xullas, Samarqand viloyati Zarafshon okrugi deb nomlangan tarixiy davrda ma'muriy birliklar viloyat bo'limlarida bir xil miqdorda bo'lmagan. Xususan, Samarqand bo'limida ma'muriy birliklar boshqa bo'limlarga nisbatan ko'pligi aholi o'troq turmush kechirishi, soni va zichligi bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni aholi soni ko'pligi va boshqarish qulay bo'lishi uchun imperiya ma'muriy birliklarni Samarqand va Kattaqo'rg'onda ko'proq, aholi yoyilib yashaydigan Tog'li tumanlarda esa boshqaruv xarajatlarini qisqartirish maqsadida kam miqdorda tashkil etgan. Okrug 1887 yildan Samarqand viloyatiga aylantirilgach, uning tarkibidagi ma'muriy birliklar soni Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdlarida Jizzax va Xo'jand uyezdlariga nisbatan ko'proq bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины: Учеб. Пособие. – Самарканд, 1970.
2. Pardayev K.K. O'rta Zarafshon (Miyonkol) vohasining XIX–XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti: Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2003.
3. Axmedov T.O. Zarafshon muzofoti boshlig'i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida: Tarix fan. bo'y. fal. dok. (PhD) ...diss avtoref. – Toshkent, 2021.
4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: Sharq, 1998. 265-268-bet.
5. O'zMA I-22-fond, 1-ro'yhat, 3-ish, 2-varaq.
6. Обзор Самаркандской области за 1887 год. – Самарканд, 1888.
7. Материалы для статистике Туркестанского края. Вып. IV. – СПб., 1876. – С. 11-55.
8. Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. Oxford University Press, 2008. P. 103.